

## **O‘ZBEKISTINDA TURIZM REKREATSION KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLINISHI.**

*PhD Sa’dullayeva Gulnoza Sodiq qizi*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

[sadullayevagulnoza94@gmail.com](mailto:sadullayevagulnoza94@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada klaster tushunchasi va mohiyati, xorij tajribalari, turistik rekreatsion hududlar faoliyatini klaster asosda yo’lga qo’yishda davlat tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlar va shart sharoitlar, normative huquqiy hujjatlar bayon etilgan.

**Tayanch iboralar.** Turizm destinatsiyasi, destinatsiya yo‘nalishlar tipologiyasi, hayot sikli, destinatsiya konsepsiyasi, rivojlanish bosqichlari, turizm klasterlari, rekreatsiya, klaster modellari.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatnomasida mamlakatimizni barcha jabhasini, xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash sohalarini, jamiyatda yoshlar va ayollar mavqeini yanada yuksaltirish kabi masalalarni o‘z ichiga oldi. Ijtimoiy rivojlanishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish uchun respublikaning iqtisodiy qudratini yuksaltirish zarurati birinchi rejaga chiqadi. Shu maqsadda, Yurtboshimiz iqtisodiy o‘sishga, avvalo, raqobatdagi sanoat “klaster”larini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko‘paytirish orqali erishishimiz lozimligini ta’kidlab, 2021-yilning 1-apreligacha istiqbolli sanoat klasterlari ro‘yxatini aniqlab, ularning jadal ravnaqi uchun alohida dastur ishlab chiqish haqida hukumatga topshiriq berdi. Jahon iqtisodiyot fanini rivojlantirish tarixida amerikalik olim, Garvard universiteti professori Maykl Porter ustunlikni ta’minlovchi raqobat strategiyalarini ishlab chiqish uslubi yaratib, biznesni klasterlashtirish nazariyasining muallifi sifatida dunyoga tanilgan.

Maykl Porterning “Raqobat ustunligi: yuqori natijaga erishish va uning barqarorligini ta’minlash” nomli asari Amerikada 1985-yilda e’lon qilingan. Hozirga kelib kompaniyalar tovarlar, sarmoyalar, kerakli axborotlarni dunyoning istalgan nuqtasidan bir necha tugmani bosib topa olishi mumkin. Shuning uchun nisbatan ochiq bozorlar, tezkor aloqa va transportirovka imkoniyatlari raqobatda joylashish o’rnining ahamiyatini nazariy jihatdan pasaytirishi mumkin. Agar joylashish o’rni ahamiyatga ega bo’lmasa, unda nima uchun boshqa mintaqalarga nisbatan Bostonda jamoaviy investorni topish imkoniyati yuqori? Nima uchun Shimoliy Karolina va Janubiy Karolinada joylashgan to’qimachilik sanoati kompaniyalari, janubiy Germaniyadagi yuqori unumli avtomobil kompaniyalari, shimoliy Italiyadagi zamonaviy poyabzal ishlab chiqaruvchi kompaniyalar dunyo bozorida raqobat ustunligiga ega?

Ushbu savollarga javob topish maqsadida Porter rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotini tashkil etish shakllaridagi o’ziga xos xususiyatlarni o’rgangan va muvaffaqiyatning asosida biznesni klasterlashtirish yotganligini isbotlab bergan. Klasterlar milliy, mintaqaviy, mamlakat iqtisodiyotining alohida xususiyatlarini o’zida mujassamlashtiradi. Biroq innovatsiyalar va raqobatdagi muvaffaqiyat ma’lum geografik makonlarda to’planishiga qaramay, kompaniyalar joylashgan makonning ahamiyati uzoq vaqtgacha yetarli baholanmagan. Biznesni klasterlashtirish modellarini tanlashda qulay joyga ega bo’lishning o’zi yetarli emas. Bu uchun ushbu joyda tabiiy moddiy resurslar, infratuzilma obyektlarining borligi, mahalliy aholi ma’lum bir kasbiy mahoratga ixtisoslashgan bo’lishi lozim. Ana shundagina geografik jihatdan yaqin, o’zaro bog’langan kompaniyalar va shu sohada faoliyat yuritayotgan tashkilotlardan iborat klaster tashkil etish mumkin. Bunga misol sifatida Kaliforniyadagi vinochilik klasterini keltirib o’tish maqsadga muvofiq. U bir necha ming mustaqil uzumchilarni jamlagan 680 tijorat vino korxonasini birlashtiradi. Uning tarkibida uzumchilik va vinochilikni qo’llab-quvvatlaydigan qator sanoat korxonalari bor. Ular uzum xom ashyosi, irrigatsiya va tayyorlash jihozlari yoki bochka hamda yorliqlar yetkazib beruvchi tashkilotlar, jamoatchilik bilan aloqalarni yurituvchi hamda reklama kompaniyalari, iste’molchilar va

savdo auditoriyalariga mo'ljallangan xilma-xil nashrlardan iborat. Bulardan tashqari, Devisdagi Kaliforniya universitetining dunyoga mashhur vinochilik va enologiya dasturi, Vinochilik instituti, Kaliforniya Senati va Assambleyasining maxsus qo'mitasi ham klaster tarkibiga kiradi. Klaster uning tarkibidagi har bir korxonaga ishlab chiqarish hajmining miqyosini kengaytirish evaziga yuqori foyda olish imkonini beradi. Chunki korxonalar o'rtasida xomashyo, jihozlar va boshqa resurslarni sotib olish, ishlab chiqargan mahsulotini esa sotish xarajatlaridan ozod. Klasterlashtirish zarurati muayyan mamlakatning alohida xususiyatlaridan ham kelib chiqadi. Masalan, Isroilda irrigatsiya va boshqa qishloq xo'jaligi texnologiyalari klasteri suv tanqisligi, shuningdek, issiq, quruq iqlim sharoitida barcha resursdan tejamkorlik bilan foydalanish imkonini beradigan uskunalari ishlab chiqariladi. Finlyandiyadagi ekologik klaster atrof-muhitni buzadigan metallurgiya, o'rmon xo'jaligi, kimyo va energetika kabi qayta ishlovchi sanoat korxonalarida yagona ekologik me'yorlarni o'rnatishga qaratilgan. Har qanday klasterni tashkil qilish uchun vertikal integratsiya strategiyasidan foydalaniladi. Bu shunday usulki, uning yordamida kompaniya texnologik "zanjir"da o'z chiqish bosqichlarini (orqaga integratsiya) yoki uning kirish bosqichlarini (oldinga integratsiya) yuzaga keltiradi. Integratsiya to'liq va tor bo'lishi mumkin. To'liq integratsiyada barcha kirish yoki chiqishlar birlashadi. Tor integratsiyaga kompaniyaning kirish unsurlarining bir qismini sotib olish, qolganlarini o'z kuchi bilan ishlab chiqarish misol bo'la oladi.

Vertikal integratsiyadan foydalanadigan kompaniya odatda o'zining asosiy dastlabki biznesiga xos raqobatchilik mavqeini kuchaytirish istagi bilan izohlanadi.

Bunga quyidagilar sabab bo'ladi:

xarajatlarni tejash;

integratsiyalanayotgan ishlab chiqarishda bozor qiymatidan chetlanish;

sifat nazoratini yaxshilash;

o'z texnologiyasini himoyalash.

Ammo vertikal integratsiyaning salbiy tomonlari ham bor. Ularning ichida eng muhimi quyidagilar:

texnologiyalar tez almashgandagi yo'qotishlar;

talabning mavhum bo'lgandagi yo'qotishlar.

Agar kompaniyaning tashqi arzon ta'minot manbalari mavjud bo'lsayu, o'z ishlab chiqarishidan foydalansa, vertikal integratsiya xarajatlarini ko'paytirib yuborishi mumkin. Bu kompaniya ichida raqobatning yo'qligi sababli ham yuz berishi mumkin bo'lib, u shu'ba korxonalarini (yetkazib beruvchilarni) ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishga undamaydi. Texnologiya keskin o'zgarganda kompaniyaning eskirgan texnologiyaga bog'lanib qolishi xavfi vujudga keladi. Talab doimiy bo'lganda yuqoriroq integratsiya darajasi mahsulot ishlab chiqarishni ishonchliroq himoyalash va muvofiqlashtirishga imkon beradi. Talab beqaror va mavhum bo'lsa vertikal integratsiyada muvofiqlashtirish qiyin kechadi. Bu boshqaruv qiymatining o'sishiga olib kelishi mumkin. Bunday sharoitda tor integratsiya to'la integratsiyaga qaraganda xavfsizroq bo'lib chiqishi mumkin. Shuni ham qayd etish lozimki, tor integratsiya to'la integratsiyaga qaraganda xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi. Bu esa ayrim sharoitlarda kompaniyaga vertikal integratsiyani kengaytirish imkonini beradi. Umuman olganda, tor integratsiya boshqaruv xarajatlarini kamaytirishi mumkin bo'lsa-da, u xarajatlarni batamom bartaraf qila olmaydi. Kompaniya bunga teskari strategiya sifatida yetkazib beruvchilar yoki iste'molchilar bilan uzoq muddatli shartnomalardan foydalanishi mumkin. Bunday aloqalar kredit majburiyatlaridan yoki ishlab chiqarishni rivojlantirishga garov investitsiyalaridan foydalanishda, ayniqsa, katta samara beradi. Bu boshqaruv xarajatlarini oshirmay turib, vertikal integratsiya samarasiga erishish imkonini yaratadi. Vertikal integratsiya asosida korxonalarini klasterlarga birlashtirishning yana bir muammosi bor: uyushadigan ishlab chiqarish quvvatlari bir-biriga mutanosib bo'lishi kerak, aks holda ular ishlamay, bo'sh turib qoladi, quvvatlardan foydalanish ko'rsatkichlari pasayib ketadi. Bu holatni aniq tasavvur qilish uchun diametri turlicha bo'lgan quvurlardan yasalgan suv o'tkazgichni ko'z oldingizga keltiring. Suv o'tkazgichning quvvati eng ingichka quvur diametri bilan cheklanadi. Yuqorida asoslangan nazariy qarashlar va ilmiy yondashuvlarga rioya qilish tuzilayotgan

klasterlarning yuqori samaradorligini ta'minlashga kafolat bo'ladi. Masalaning amaliy jihatiga kelsak, mamlakatimizning Buxoro va boshqa viloyatlarida tashkil etilgan paxtachilik-to'qimachilik, dorishunoslik klasterlari qisqa vaqt ichida ishlab chiqarishni kengaytirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, yuqori samaradorlikka erishishda namuna bo'lyapti. Ushbu tajribani iqtisodiyotimizning boshqa tarmoqlariga ham tatbiq etib, meva-sabzavot, chorvachilik, pillachilik mahsulotlarini qayta ishlovchi, ularga zarur uskunalar va qadoqlash ashyolari yetkazib beruvchi korxonalaridan, ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik tuzilmalaridan, o'quv muassasalaridan iborat klasterlar tuzilsa, milliy iqtisodiyotimizning dunyo bozorida raqobatbardoshligi yanada oshadi.

### **Adabiyotlar**

1. "Turizm to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'zbekistonning yangi qonunlari.-T.: <http://www.lex.uz/docs/4428097>, 2019, Toshkent sh., 2019-yil 18-iyul, O'RQ-549-son
5. Aleksandrova Yu.A. "Международный туризм" Учебник. М: "Аспект пресс" 2004g. 342
9. Birjakov M.B. Vvedeniye v turizm. S.Pb.: Izdatelskiy Torgovyy Dom "Gerda", 2004 g.
14. Durovich A.P. "Marketing v turizme". Minsk. "Novoye znaniye".2001.
15. Durovich A.P. Reklama v turizme. Uchebnoye posobiye. 2003.
16. Jukova M.A. Industriya turizma: menedjment organizasii. M.: "Finansy i statistika", 2006.
17. Zorin I.V., Kvartalnov V.A. Ensiklopediya turizma. M. Finansy i statistika, 2000.
18. Kabushkin N.N. Menedjment turizma. "Novoye znaniye" Moskva, 2001.